

OILA MUSTAHKAMLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR

Jamoliddinova Mastona Husniddin qizi,

*Namangan davlat pedagogika institute, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish
metodikasi (ma'naviyat asoslari) mutaxassisligi 2-kurs magistri*

Email: Jamoliddinovamaston467@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oila institutining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, uni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy, ijtimoiy va ma'naviy omillar tahlil qilinadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlari asosida oilalarni qo'llab-quvvatlash va ajralishlar oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, oila qadriyatlarini tiklash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda mahalla va tegishli vazirliklar hamda tashkilotlarning faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari oila barqarorligini mustahkamlashda davlat va jamiyat hamkorligining ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Oila, mustahkamlik, jamiyat, qadriyatlar, nikoh, ajralish, yoshlar tarbiyasi, huquqiy asoslar, gender tenglik, mahalla, davlat siyosati, ijtimoiy institut.

Аннотация. В статье анализируются роль и значение института семьи в обществе, а также правовые, социальные и духовные факторы, направленные на его укрепление. В частности, освещаются проводимые в Республике Узбекистан реформы, принимаемые законодательные акты, а также меры по поддержке семьи и профилактике разводов. Также будет проанализирована деятельность махалли и соответствующих министерств и организаций по восстановлению семейных ценностей и подготовке молодежи к семейной жизни. Результаты исследования демонстрируют важность сотрудничества государства и общества в укреплении стабильности семьи.

Ключевые слова: Семья, стабильность, общество, ценности, брак, развод, воспитание молодежи, правовая основа, гендерное равенство, махалля, государственная политика, социальный институт.

Annotation. This article analyzes the role and significance of the family institution in society, as well as the legal, social, and moral factors that ensure its stability. It highlights the reforms carried out in the Republic of Uzbekistan, including legislative acts and state programs aimed at supporting families and

preventing divorces. The study also discusses the importance of restoring family values and preparing young people for married life, focusing on the activities of neighborhood committees and relevant ministries and organizations. The findings emphasize the importance of cooperation between the state and society in strengthening family stability.

Keywords: *Family, stability, society, values, marriage, divorce, youth education, legal framework, gender equality, neighborhood, state policy, social institution.*

Oila mazmuniga ko‘ra keng qamrovli institut hisoblanib, yosh avlod ta‘lim-tarbiyasida, ularni sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol toptirish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida muhim o‘rin tutadi. Shu bois, oila azaldan jamiyat ijtimoiy-ma‘naviy, qolaversa iqtisodiy, ma‘rifiy, ahloqiy, hattoki, siyosiy hayotida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan muqaddas maskan sifatida e‘tirof etiladi.

Tarixdan ma‘lumki, davlat bilan oila, ularning vujudga kelishi va boshqarish mexanizmi ijtimoiy-huquqiy tushga ega. Oilaning yuzaga kelish asosi sifatida nikoh - nikohlantuvchi taraflarga er va xotin maqomini berish orqali ular zimmasiga huquq va majburiyatlar, javobgarlik (burch, vazifa, mas‘uliyat) yuklashni yuridik jihatdan rasmiylashtirish jarayoni hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 3-bobida nikoh, nikoh tuzish tartibi, uning ixtiyoriyligi, nikoh yoshi kabi huquqiy jihatlari to‘la-to‘kis yoritib berilgan [1]. Aynan nikoh qayd etilganidan e‘tiboran oilaviy munosabatlarni nazorat qilish, muammolarni hal qilish, nazoratga olish huquqiy jihatdan boshqarish davlat zimmasida bo‘ladi. Zero, har qanday jamiyat, davlatning ijtimoiy tanazzuli oilaning buzilishi, barbod bo‘lishi kabi illatlar bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun nikoh munosabatlari, yolg‘iz yashovchilar va oilaviy muammolarni o‘rganish jamiyat ijtimoiy tarkibini ijobiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishda bevosita faoliyat olib borayotgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi huzuridagi Oila va xotin-qizlar ilmiy tekshirish instituti hamda mahallalarning rolini alohida qayd etish joiz.

Jamiyatimizning asosi bo‘lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa yosh oilalarni huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, jismonan sog‘lom, ma‘naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, mustahkam, sog‘lom oilani shakllantirishda mahallaning mavqeyini mustahkamlash va rolini kuchaytirishga doir aniq maqsadga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida, shuningdek 1-prezidentimiz Islom Karimov 2012-yil O‘zbekiston Respublikasida “Mustahkam oila yili” deb e‘lon qilinganligini ko‘rishimiz mumkin [9].

Oila shunday muqaddas dargohki, har qanday makonda ham hurmat va e‘tibor bilan munosabatda bo‘lishga chaqiradi. Bu borada butun dunyo bo‘ylab qator tadbirlar amalga oshirilganligini guvohi bo‘lamiz. Jumladan, 1993-yil 20-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Xalqaro oila yili to‘g‘risida”gi rezolyutsiyasi qabul qilingan. Ushbu xalqaro hujjatga muvofiq, 1994-yildan boshlab 15-may – Xalqaro oila kuni sifatida dunyoning deyarli barcha davlatlarida keng nishonlanib kelinadi [10]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida oila manfaatini himoya qilish, oilaning jamiyatdagi mavqei va maqomini yanada yuksaltirish, yosh oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining 2018-yil 27-iyundagi tegishli qaroriga muvofiq, 2019-yildan e‘tiboran yurtimizda har yili 15-may — Xalqaro oila kuni sifatida keng nishonlanayapti [10].

Yurtboshimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri oila institutining tarixiy ildizlarini yuzaga chiqarish, oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishdan iborat. Shu ma‘noda o‘tgan davr mobaynida davlatimiz tomonidan yurtimizdagi oilalar, ayniqsa, katta hayot ostonasiga endi qadam qo‘yayotgan yosh oilalar mustahkamligi, ularning jamiyatning bir bo‘lagi sifatida mustaqil shakllanib borishi uchun ko‘plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan:

– oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat” g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko‘maklashishni tashkil etish belgilandi;



– oilalarni mustahkamlash, yoshlarni oilaga tayyorlash, ajralish yoqasiga kelib qolgan oilalar muammolarini manzilli aniqlab, aniq diagnostik orqali bartaraf qilish bo‘yicha mahallalarda “Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi” tashkil etildi;

– Vazirlar Mahkamasining 2020-yilda 10-iyunda 367-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi [4].

Keyingi yillarda mamlakatimizda oilalar mustahkamligini ta’minlash, ayniqsa, oilaviy ajralishlarni oldini olish va yoshlarni oilaga tayyorlash borasidagi ishlarni tamomila yangi bosqichga ko‘tarish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qarab kelinmoqda. Zotan, oilada qadriyatlar ulug‘lanib tarbiyalanayotgan oilalar farzandlari mustahkam oila bunyodkorlari va jamiyatimiz egalaridir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 31-dekabrda 820-sonli qarori asosida tuman (shahar) mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limlari huzurida tashkil etilishi rejalashtirilayotgan Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari sohadagi mazkur ish uslubini yangi bosqichga olib chiqishi bilan yanada ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyundagi 367-sonli qarori “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 820-sonli qarori “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yil 27-iyundagi qarori asosida 15-may – Xalqaro oila kuni sifatida belgilanishi.
5. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993-yil 20-sentyabrda “Xalqaro oila yili to‘g‘risida”gi rezolyutsiyasi.
7. “Oila va jamiyat” jurnali. – Toshkent: 2019–2024 yillar sonlari.



8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi hisobotlari.

9. <https://lex.uz/acts/-1967131>

10. <https://parliament.gov.uz/articles/2062>



Research Science and
Innovation House

